



XORIJ TEXNOLOGIYASI ASOSIDA YETISHTIRILGAN PAXTA XOM ASHYOSINI QAYTA ISHLASH NATIJASIDA SIFATLI URUG'LIK CHIGIT TAYYORLASH BO'YICHA TAVSIYALAR

J.Boboyev 1, A.Xolboyev 2, G.Odilova 3

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston paxtachiligida xorijiy g'o'za navlarini joriy etishning zamonaviy agrotekhnologiyalari hamda kelgusi yil hosili uchun urug'lik tayyorlash masalalari tahlil qilingan. 2024–2025 yillarda respublikaga xorijiy urug'lik olib kelinib, turli hududlarda joylashtirilishi va o'tkazilgan tajribalar natijalari keltirilgan. Zamonaviy agrotekhnologiyalarni qo'llash, yuqori sifatli urug'likdan foydalanish hamda ilmiy asosda parvarishlash ishlarini olib borish hosildorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi aniqlangan. Shuningdek, urug'lik tayyorlashda seleksiya, saralash va saqlash jarayonlarini takomillashtirish kelgusi yillarda barqaror va yuqori hosil olishning muhim omili ekanligi keltirilgan.

Kalit so'zlar:

g'o'za, paxtachilik, xorijiy navlar, urug'lik, agrotekhnologiya, hosildorlik, seleksiya, tayyorlash, ilmiy, parvarish, agrar, innovatsiya, tajriba-sinov.

Аннотация: В данной статье анализированы современные агротехнологии внедрения иностранных сортов хлопка в Узбекистане, а также вопросы подготовки семян для урожая следующего года. Приведены результаты опытов, проведённых в различных регионах страны в 2024–2025 годах после ввоза зарубежных семян.

Установлено, что применение современных агротехнологий, использование семян высокого качества и научно обоснованный уход за растениями существенно повышают урожайность. Кроме того, совершенствование процессов селекции, сортировки и хранения семян является важным фактором обеспечения стабильного и высокого урожая в будущем.

Abstract. This article analyzes the modern agrotechnologies for introducing foreign cotton varieties in Uzbekistan, as well as issues related to seed preparation for the next year's harvest. The results of experiments conducted in various regions of the country in 2024–2025, following the import of foreign seeds, are reviewed.

It has been determined that the application of modern agrotechnologies, the use of high-quality seeds, and scientifically based crop management significantly increase productivity. Furthermore, improving the processes of selection, sorting, and storage of seeds is identified as a crucial factor for achieving stable and high yields in the coming years.


Bugungi kunda paxtachilik sohasida bir qator dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat: suv resurslarining kamayib borishi, iqlim o'zgarishining salbiy ta'siri, hosildorlikning barqaror emasligi hamda urug'lik sifatining pastligi. Ushbu omillar tarmoq samaradorligini oshirishda jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu sababli zamonaviy yondashuv sifatida yuqori hosildor, stress omillariga chidamli xorijiy g'o'za navlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday navlar suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi sharoitida barqaror hosil olish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-391-son qarori paxtachilikda urug'chilik tizimini tubdan takomillashtirish, xorijiy g'o'za navlarini sinovdan o'tkazish hamda ularni keng joriy etishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi [1].

Mazkur qaror ijrosi doirasida 2024-yilda 96 ming gektar maydonga 2,4 ming tonna xorijiy urug'liklar ekilib, keng ko'lamli tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Ushbu jarayonda soha olimlari va fermer xo'jaliklarining faol ishtiroki natijasida paxtachilikda yangi bosqich boshlanganligi e'tirof etilmoqda.

Yetishtirilgan hosilni paxta-to'qimachilik klaster tizimida qayta ishlash jarayonlari zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, paxtaga dastlabki ishlov berish, paxta tozalash korxonalarida xom ashyoni saqlash hamda ishlab chiqarishga tayyorlash jarayonlari ilg'or texnologiyalar yordamida tashkil etilishi tavsiya etildi va nazoratga olindi [2] (1-rasm).



1– rasm. Paxta tozalash korxonasida o'rta tolali paxtani daslabki ishlashda ishtirok qiladigan asosiy uskunalar tizimi

Shuningdek, paxtani ishlab chiqarishga uzatishda qo'llaniladigan texnika va texnologiyalar takomillashtirilgan bo'lib, paxtani, jumladan, urug'lik paxtani yumshoq rejimda, paxta tarkibidagi chigitlarni qizib ketmasligini ta'minlash uchun quritish agenti xaroratini avtomatik rostlash imkoniyatiga ega bo'lgan quritishning

innovatsion usullari keng joriy etilgan issiqlik generatoridan foydalanish tavsiya etiladi [3, 4] (2-rasm). Paxtani turli iflosliklardan samarali tozalashning istiqbolli texnologiyalari qo'llanilishi mahsulot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.


Bundan tashqari, chigitdan tolani ajratishning zamonaviy texnika va texnologiyalari, chigitni tozalash, saralash hamda momiq olish jarayonlari izchil ravishda takomillashtirilmoqda. Tolali mahsulotlarni tayyorlash texnologiyasi hamda urug'lik chigit tayyorlashning zamonaviy usullari asosida ishlab chiqarish samaradorligi yanada oshirilmoqda.



2– rasm. Paxta xom ashyosini quritishda quritish agenti xaroratini avtomatik rostlash imkoniyatiga ega Issiqlik generatori

2025-yil hosili uchun xorijdan keltirilib ekilgan g'o'za navlaridan mahalliy sharoitda 10,4 ming tonna urug'lik jamg'arildi. Mazkur hajmdan 3,0 ming tonna urug'lik chigit tayyorlandi.

Shuningdek, 2026-yil hosili uchun mahalliy sharoitda yetishtirilgan xorijiy navlardan 15,6 ming tonna urug'lik saralanib, 9,0 ming tonna urug'lik chigit tayyorlash ishlari ixtisoslashgan zamonaviy sexlarida olib borilmoqda [5] (3-rasm).



3-rasm. Tuksizlantirilgan urug'lik chigitlarni bir bosqichli tuksizlantirish uslubini qo'llab tayyorlash tizimi

1– UPS qabul qilish bunkeri; 2- ChSA agregati; 3- MChT mexanik chigit tozalagichi (ChSA agregati majmuasiga kiradi); 4- siklon; 5- kalibrlagich; 6- triyer; 7- BNOS tuksizlantirilgan chigitni yig'ish va me'yorlab uzatib berish bunkeri; 8- chigit dorilash mashinasi; 9- chigitni o'lchab qoplash apparati; 10- qop tikish

mashinasi; 11- UChDM urug'lik chigit delinterlash mashinasi; 12- iflos havoni tozalash aspiratsiya qurilmasi

Respublikada paxta va g'alla yetishtirishda ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni keng joriy etish, sohani davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, paxta hosildorligini oshirishda ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan yangi yondashuvlarni qo'llash muhim vazifa etib belgilangan.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-370-sonli "Paxtachilik va g'allachilikda hosildorlikni oshirish uchun yuqori samarador intensiv agrotexnologiyalarni qo'llashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2026-yil uchun asosiy maqsadli ko'rsatkichlar belgilab berildi [6].

Mazkur qarorga ko'ra, "Shinjon" tajribasi (76x10 sm qo'shqator sxema asosida, plynka ostida, gektariga 220–240 ming tup ko'chat qoldirish)ni keng joriy etish orqali paxta yetishtirish samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu yondashuv ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarni qo'llash orqali hosildorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur topshiriqlar ijrosi doirasida mahalliy sharoitda yetishtirilgan urug'liklardan tashqari, 2025-yilda 13 ming tonna xorijiy g'o'za navlari urug'liklarini olib kelinib, 342 ming gektar maydonda paxta xom ashyosi yetishtirildi.

Joriy yilda esa 448 ming gektar paxta maydoniga ekish uchun 11,6 ming tonna xorijiy g'o'za navlari urug'liklarini olib kelish ta'minlandi.

Yuqoridagi chora-tadbirlar natijasida paxtachilik sohasida ilg'or xorijiy tajribalar va zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni keng joriy etish orqali hosildorlikni oshirish uchun mustahkam zamin yaratilmoqda.

Xususan, yuqori sifatli urug'lik bazasini shakllantirish, xorijiy navlarni mahalliy sharoitga moslashtirish hamda ilmiy asoslangan yondashuvlarni amaliyotga keng tatbiq etish paxta yetishtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy g'o'za navlarining urug'chiligini yo'lga qo'yish vazifalari doirasida ularni mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirish, yuqori reproduksiyali urug'liklarni yetishtirish, saralash va saqlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, urug'lik tayyorlashning zamonaviy texnologiyalarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, urug'chilik klasterlarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish hamda sifat nazoratini xalqaro standartlar asosida tashkil etish orqali yuqori sifatli urug'lik bazasini shakllantirishga erishiladi.

Shu bilan birga, paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish, zamonaviy qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish tarmoqning iqtisodiy samaradorligini yanada oshiradi.

Natijada, sohada barqaror o'sish ta'minlanib, eksport salohiyati kengayadi hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 15-dekabrdagi PQ-391-son qarori.
2. Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha qo'llanma."Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, Toshkent, 2019. 477 b.
3. Boboyev J.X., Xolboyev A.M. “Takomillashtirilgan issiqlik generatorini sinovlarini o‘tkazish va uni ishlab chiqarishga joriy etish” O‘zbekiston Agrar Fani Xabarnomasi. 2 (8), 2023, 4, 2023 y. – 99 b.
4. Boboyev J.X., Xolboyev A.M. “Takomillashtirilgan issiqlik generatori uchun yonilg‘i sifatida tabiiy gazning asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlash” O‘zbekiston Agrar fani xabarnomasi. № 6/1 (24) 2025 y. -556 b.
5. Urug'lik chigit, uni tayyorlash texnologiyasi va urug'lik chigit tayyorlash tsexlarida ishlatiladigan asosiy uskunalar, PDI 09-2008, "Paxtatozalash IICHB" OAJ, 2008, 104 v.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxtachilik va g‘allachilikda hosildorlikni oshirish uchun yuqori samarador intensiv agrotexnologiyalarni qo‘llashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 9-dekabrdagi PQ-370-sonli qarori.